

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

“Umurtqalilar zoologiyasi” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, mashqlar bajaradilar. Auditoriyadan tashqari talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan mashqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'rizalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Umurtqalilar zoologiyasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanining barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko'rinishida shakllangan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi (soat da)
1	Akvarium baliqlari, asosiy turlarini boqish	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	1-hafta	2
2	Baliqchilik, uning iqtisodiy ahamiyati.	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	2-hafta	2
3	O'zbekiston suv havzalarida iqlimlashtirilgan baliqlarning hayoti va iqtisodiy ahamiyati.	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	3-hafta	2
4	O'zbekiston suv havzalarida ovlanadigan baliqlar	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	4-hafta	2

5	O'zbekiston suv havzalarining noyob va yo'qolib borayotgan baliqlari.	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	5-hafta	2
6	Baliqlarning ko'payishi va nasl to'g'risida g'amxo'rlik qilishi.	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	6-hafta	2
7	O'zbekiston faunasida uchraydigan suvda ham quruqlikda yashovchilarning hayoti va ahamiyati.	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	7-hafta	2
8	Suvda ham quruqlikda yashovchilarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	8- haftar	2
9	O'zbekistonning zaharli ilonlari, ularning tarqalishi va ahamiyati	Krassvord tayyorlash	7-hafta	4
10	Ilonlar, tuzilishi va hayot kechirishining asosiy xususiyatlari	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	9-hafta	4
III semester – 24 soat				
11	Kaltakesaklar, O'zbekiston faunasidagi asosiy turlarining hayoti	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1-hafta	2
12	Toshbaqalar tuzilishining asosiy xususiyatlari, turlari, tarqalishi	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	2-hafta	2
13	Chumchuqsimon sayroqi qushlar asosiy turlarining hayoti. Tovuqsimonlar, asosiy turlarining hayoti.	Chizma va hisobot qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	3-hafta	2
14	Suv qushlari, tuzilishi Chumchuqsimon sayroqi qushlar asosiy turlarining hayoti. Tovuqsimonlar, asosiy turlarining hayoti va hayot kechirishi. Suv bo'yida yashovchi qushlarning tuzilishi va hayot kechirishi. Hasharotxo'r qushlar, ularning tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati	Slayd tayyorlash	4-hafta	2

15	Qushlarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi. Yirtqich qushlar, ularning tabiiy sanitarlar sifatidagi ahamiyati	Slayd tayyorlash	5-hafta	2
16	Noyob va soni kamayib borayotgan qushlar, ularni muhofaza qilish. Qushlarning nasl to'g'risida g'amxo'rlik qilishi.	Buklet tayyorlash	6-hafta	2
17	Mushuksimonlar, hayot kechirishi va tarqilishi. Itsimonlar, hayot kechirishi va tarqilishi.	Buklet tayyorlash	7-hafta	2
18	Kemiruvchilar, asosiy turlari, ahamiyati.	Krassvord tuzish	8-hafta	2
19	O'zbekiston qo'riqxonalarini va ularning noyob hayvonlarni asrab qolish hamda ko'paytirishdagi ahamiyati.	Buklet tayyorlash	9-hafta	2
20	Sut emizuvchilarning kelib chiqishi va ularni muhofaza qilish.	internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	10-hafta	2
21	Hayvonot dunyosi evolyutsiyasi	Buklet tayyorlash	11-hafta	2
IV semester – 22 soat				
Jami				46

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar. "Umurtqalilar zoologiyasi" fanini o'qitishda tablitsa va jadvallar, tarqatma materiallardan, slaydlar, kodoskop, kompyuterdan, tuluplar, mulyajlar, ho'l preparatlardan, hamda boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Shuningdek ma'ruza va laboratoriya darslarida o'quvchilar bilimni kengaytirish va chuqurlashtirish, bilim doirasini kengaytirish va yetkazib bera olish malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan turli yangi va amalda sinab ko'rilgan pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

- jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

- video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

- kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).